

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

OCHILOVA KAMOLA ILXOM QIZI

**O'ZBEKISTONDA KINO VA TEATR SAN'ATI TARIXI
(1991-2020 yy.)**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijası

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Ochilova Kamola Ilxom qizi

O'zbekistonda kino va teatr san'ati tarixi (1991-2020-yy.)..... 5

Очилова Камола Илхом кизи

История кино и театрального искусства Узбекистана (1991-2020 годы)..... 29

Ochilova Kamola Ilkhom kizi

History of cinema and theater arts in Uzbekistan (1991-2020)..... 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 59

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

OCHILOVA KAMOLA ILXOM QIZI

**O'ZBEKISTONDA KINO VA TEATR SAN'ATI TARIXI
(1991-2020 yy.)**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Filosofiya dokteri (PhD) dissertatsiyasi mavzusni O'zbekiston Respublikasi Oliy fa'ilim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Tar629 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:
tarix fanlari doktori, professor

Ergasheva Yulduz Alimovna

Rasmiy opponentlar:

Qabulov Eshbolta Atamuratovich
tarix fanlari doktori, professor

Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich
tarix fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "6" yanvar soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04; faks: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (308-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "11" dekabr kuni tarqatildi
(2025-yil "22" dekabr dagi 29 raqamli reyestr bayonnomasi).

B.J. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

N.N. Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari nomzodi, dotsent

O. Bo'riyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar rais o'rinosari, tarix fanlari nomzodi, dotsent



KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Jahonda bugungi globallashuv davrida insoniyat taraqqiyotida madaniyatlar va san'at turlari o'rtaida o'zaro ta'sir, ijodiy faoliyatni anglashga nisbatan yangi yondoshuvlarni shakllanishi, intellektual salohiyatni rivojlanishi, madaniy universallashuv jarayonlari insoniyat tamadduniga ega bo'lgan beqiyos qadriyatlarni saqlab qolish borasida muhim tadbirlarni amalga oshirishni yuzaga chiqarmoqda. Bu davriy o'zgarish barcha sohalar singari inson ongi va tafakkurini teranlashtirish, ma'naviy olamini yuksalishiga xizmat qiladigan, dunyo davlatlari hayotida o'z o'rniga ega bo'lib, yangicha siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy qiyofa kasb etayotgan kino va teatr san'atida ham kuzatilmoqda. Boshqacha aytganda, madaniyatning yetakchi turlari sifatida kino va teatr inson tafakkurini ommaviy madaniyat tahdidlardan himoya qilish, unga qarshi dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g'oyalar ruhida tarbiyalash, ijodiy, intellektual salohiyatini va estetik didini rivojlantirishga qaratilgan yetuk san'at asarlarini yaratish, jamiyat madaniy taraqqiyotiga moslashtirish masalasi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan madaniyatni muhim turi sifatida insonni innovatsion va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ma'naviy dunyoqarash va saviyясini oshirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga hizmat qiluvchi vositasi kino va teatr sohasini o'rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Yevropa va Osiyodagi taraqqiy etgan davlatlar maktablari rivojlanishi, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari madaniy hayoti tarixi, kino va teatrning shakllanishi va rivojlanishi, sovet davlati tarkibida bo'lgan respublikalar, xususan, o'zbek xalqi madaniy hayotida mafkuraviy tazyiqlarning kuchayishi, unga ta'sir ko'rsatgan omillarga bag'ishlangan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, kino va teatrda transformatsiya jarayonlari, mafkurafiy ta'sir, inson dunyoqarashini va didini shakllantirish, milliy madaniyat va ma'naviyatni yuksaltirish, yangi tasviriy ifoda vositalarini izlash, tomoshabinlarni jalg etishga doir texnologiyalar, marketing va menejment usullarini joriy etish, targ'ibot va tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish kabi masalalar dunyo ilm-fanining dolzarb muammosi sifatida baholanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida madaniyat sohasini isloh qilish, uni yangilanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Islohotlar jarayonida xalqimizning turmush darajasini yaxshilash barobarida, boy tarixiy merosimizni asrab-avaylash, milliy qadriyatlар, urf-odat va an'analarimizni, madaniyatimizni, xususan, milliy kino va teatr san'atini rivojlantirish va o'rganish, ilmiy-amaliy tadqiq etish hamda kelgusi avlodga yetkazish va dunyo xalqlari orasida keng targ'ib qilish borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, "inson qalbiga oljanob fazilatlar, ezgu his-tuyg'ularni singdirib, jamiyatni birlashtirish va taraqqiy ettirish, xalqni, Vatanni dunyoga tarannum etishda

madaniyat va san'atning o'rni va ta'siri beqiyosdir”¹. Darhaqiqat, zamonaviy axborot makonida ommaviy madaniyat, axloqsizlikning turli ko'rinishlari xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz dunyoqarashiga jiddiy ta'sir qilishi mumkinligi, bu mafkuraviy kurashlarga qarshi milliy kino va teatr san'atini rivojlantirish, bu borada yosh iqtidorlarni tarbiyalash, ularni imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan ham, kino va teatr san'atini rivojlanishini tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish va ilmiy tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida obyektiv zaruratga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4956-son Farmoni, 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3022-son, 2017-yil 7-avgustdagi “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3176-son, 2017-yil 9-avgustdagi “O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3184-son, 2017-yil 14-avgustdagi “Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3201-son, 2018-yil 28-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O'RQ-668-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarori va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darjasи. O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasiga oid masalalar tarixchi, faylasuf, san'atshunos va madaniyatshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Mavzuga doir adabiyotlarning mazmun va mohiyati jihatidan ularni quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq: 1) madaniyat sohasi rivojiga oid ijtimoiy-gumanitar fanlar olimlarning tadqiqotlari; 2) tarixchi, san'atshunos, madaniyatshunos olimlar tomonidan kino va teatr san'ati sohasiga bag‘ishlab yozilgan asarlar; 3) xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan adabiyotlar.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O'zbekiston madaniyat va san'at sohasi xodimlariga” bag‘ishlangan nutqi. / Xalq so‘zi gazetasi. 2022-yil 16-aprel. № 77.

Birinchi guruhgaga madaniyat sohasi rivojiga oid tadqiqotlar olib borgan madaniyatshunos, faylasuf, san'atshunos, tarixchi olimlarning ishlari tashkil etadi. Xususan, mustaqillik yillarida O'zbekistonning madaniyat tarixi, uning asosiy yo'nalishlari va muammolari o'rganilishiga bag'ishlangan nashrlar, ilmiy tadqiqot ishlari² turli tarixiy davrlardagi madaniy jarayonlar tadqiq etilgan.

A.A. Mavru洛, Yu.A. Ergasheva, N.A. Mustafayeva, M.H. To'rayeva, F.U. Tilovatov, D.S. Mamajonov, N.B. Sayfullayev, D.A. Choriyevalarning asarlarida sovet va mustaqillik yillarida O'zbekistondagi madaniy jarayonlar tarixi qiyosiy o'rganilib, sovet mafkuraviy tazyiqlarining hamda siyosiy omillarning milliy madaniyat rivojiga ta'siri, madaniyatda ro'y bergan o'zgarishlar, rivojlanish xususiyatlari ko'rsatilgan. Madaniyat sohasi mustaqillik yillaridagi rivojiga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida N.B. Sayfullayevning dissertatsion tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda mustaqillikning ilk yillarida yangi tarixiy sharoitda O'zbekiston madaniyatining zamonaviy holati, rivojining asosiy yo'nalishlari, tamoyillari va tavsifi, madaniy qurilish sohasidagi davlat siyosati yaxlit tarzda batafsil yoritilgan. D.A. Choriyeva tadqiqotida esa O'zbekistonda madaniyat sohasini boshqaruvida Madaniyat vazirligi faoliyati tarixi maxsus yaxlit tarzda o'rganilgan. Mustaqillik davri madaniy taraqqiyotini ayrim yo'nalishlari

² Маврулов А.А. Время духовного оздоровления. – Ташкент: Узбекистан, 1992. – 111 с.; Шу муаллиф. Культура Узбекистана на современном этапе: общее состояние, проблемы, тенденции развития (середина 70-х – 1990 гг.): Автореф. дисс. ...док. ист. наук. – Ташкент, 1993. – 57 с.; Нишанбаева К. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари (20-30 йиллар): тажриба ва оқибатлари: Тарих фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1998. – 167 б.; Ҳамидов Ҳ. Ўзбек анъанавий қўшиқчилик маданияти тарихи. – Тошкент, 1996; Шу муаллиф. Ўзбекистон маънавий маданияти тарихи: шаклланиши, тараккиёти муаммолари (ўзбек анъанавий қўшиқчилиги тарихи мисолида): Тарих фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. 275 б.; Эргашева Ю. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития. – Ташкент, 1997; Шу муаллиф. Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развития (50-60-е годы): Дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 1998. – 203 с.; Мустафаева Н.А. XX асрнинг 20-30 йилларида Ўзбекистон маданиятининг асосий йўналишлари ва муаммолари давр тарихшу-нослигида: Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – 160 б.; Шу муаллиф. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. – Тошкент: Navro'z. 2014. – 334 б.; Шу муаллиф. Мустамлака ва совет тарихшунослигида Ўзбекистоннинг XX аср маданияти. Тарих.фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016; Тўраева М.Ҳ. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: муаммо ва оқибатлар (1920-1940 йй.) (Жанубий вилоятлар мисолида): Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2001. – 149 б.; Ҳасанов Б. Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы 1917 – начала 50-х годов: Дисс. ... док. ист. наук. – Ташкент: 2000. – 197 с.; Ҳамзаева М.К. Ўзбекистон миллий маданиятининг ривожланиш йўналишлари ва муаммолари (1940 йилларнинг иккинчи ярми – 50 йилларнинг биринчи ярми Фарғона водийси вилоятларининг материаллари асосида): Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2001. – 174 б.; Сайфуллаев Н.Б. Ўзбекистон маданиятининг ҳозирги аҳволи ва уни ривожлантириш истиқболлари (1991-1998 йиллар). Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2002. 153 б.; Юлдашева М.Б. Ўзбекистон миллий маданияти: ривожланиш йўналишлари ва муаммолари (XX асрнинг 20-йиллари): Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 181 б.; Сохивова М.Т. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: тажриба ва муаммолар (жанубий вилоятлар мисолида. 1946-1985 йй.): Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 141 б.; Тиловатов Ф.У. Совет ҳокимиятининг XX аср 20-30 йиллардаги "Маданий инқилоб" сиёсати ва унинг Ўзбекистонда амалга оширилиши: Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 177 б.; Ҳусайнбекова Г.М. Хоразм воҳасидаги маданий жараёнлар (1925-1941 йй.): Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – 184 б; Ишанходжаева З.Р. Репрессивная политика Советской власти и её воздействие на культурную жизнь Узбекистана (1925-1950 гг.): Автореф. дисс. ...докт. ист.наук. – Ташкент. 2012. – 50 с.; Ирзаев Б.Ш. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда мусиқа маданиятининг ривожланиши. Тарих фан. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 48 б.; Мамажонов Д.С. Ўзбекистонда қайта куриш даврида маданий ҳаёт (1985-1991 йиллар). Тарих фан. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Чориева Д.А. Ўзбекистонда маданият соҳаси бошқарув тизими тарихи (Маданият вазирлиги фаолияти мисолида, 1991-2016 йй.) Тарих фан. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2023 – 155 б. ва б.

ham tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etildi. Xususan, B.Sh. Irzayevning tadqiqotida O‘zbekistonda musiqa madaniyatining rivojlanishi, yo‘nalishlari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Ikkinchi guruhni O‘zbekistonning kino va teatr san’ati sohasiga doir masalalarni tarixchi, san’atshunos, madaniyatshunos olimlar tomonidan chop etilgan adabiyotlar³, ilmiy tadqiqot ishlar⁴ tashkil etadi.

M.T. To‘laxo‘jayeva, D. Raxmatullayeva, T. Bayandiyev, H. Ikromov, T. Islomov, N.D. Abdullayeva, T. Tursunov, B.Ch. Yakubov, S. Qodirova, B.G. Axmedov, M.V. Axmetjonova, F. Abduvohidov, K.K. Sagdullayev, A.X. Ismoilov kabi san’atshunos olimlar tomonidan teatr tarixi, rejissyorlik va aktyorlik mahorati, teatr va kino san’atining rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari, yangi teatr modeli, rejissura, janrlar taraqqiyotiga doir masalalar ochib berilgan.

³ Туляходжаева М. Режиссура узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы). – Ташкент. Изд-во им. Г. Гуляма, 1995. – 85 с.; Шу муаллиф. Театр танқидчилиги: артист, режиссёр, спектакль. – Тошкент: “San’at” журнали, 2015; Исломов Т. Тарих ва саҳна. – Ташкент. Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр, 1998. – 136 б.; Маданий-маърифий муассалар фаолиятининг 1994-1995 йиллардаги кўрсаткичлари. – Тошкент: Фан, 1996. – 19 б.; Ризаев Ш. Саҳна маънавияти. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 175 б.; Истиқол ва миллий театр. – Тошкент. Янги аср авлоди, 2002. – 234 б. Раҳмонов М., Тўлаҳўжаева М.Т., Мухторов И.А. Ўзбек Миллий академик драма театри тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент: Истиқболни белгилаш, услубият ва ахборот Республика Маркази, 2003. – 267 б.; Раҳматуллаева Д. Ўзбек театр: тарихий драма. – Тошкент: Санъат, 2004. – 326 б.; Абдуллаева Н.Д. Санъат тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006; Турсунов Т. Саҳна ва замон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 413 б.; Шу муаллиф. XX аср ўзбек театр тарихи. – Тошкент, 2009; Қодирова С. Комедия санъати тарихи. – Тошкент: Санъат журнали, 2008. – 212 б.; Қодирова С. Комедия санъати тарихи. – Тошкент: Санъат журнали, 2008. – 212 б.; Турсунбоев С. Жаҳон театр тарихи. – Тошкент: Фан ва технология, 2008. – 276 б.; Баяндиеv Т., Икромов X., Аҳмаджонова М. Ўзбек театрида миллий гоя талқини. – Тошкент: Фан ва технологиялар Марказининг босмахонаси, 2009. – 218 б.; Абдувоҳидов Ф. Сурхондарё вилоят мусиқали драма театри кеча ва бугун. – Термиз, 2017; Сайфуллаев Б.Н. Янги давр Ўзбекистон театр санъати: ривожланиш муаммолари ва изланиш жараёнлари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011. – 260 б.; Туляходжаева М. История театра. Узбекский театр периода Независимости. – Ташкент: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2021. – 304 с.

⁴ Баяндиеv Т. Современный Каракалпакский театр. Проблемы режиссуры и актёрского искусства. (70-е – 80-е г.г.). Дисс. ...докт. искусствоведения. 1993. – 251 с.; Миноваров Ш. Нравственно-эстетическое воспитание старшеклассников в период второй мировой войны средствами театрального искусства. Дисс. ...канд. пед. наук. – Ташкент. 1994. – 162 с.; Туляходжаева М.Т. Режиссура узбекского драматического театра: тенденции развития и современные проблемы. Дисс... док. исск. – Ташкент, 1996. – 256 с.; Левченко Е.Г. Массовое сознание и художественная культура. Динамика взаимодействия в тексте советской культуры (по материалам театра и кино): Автореф. дисс. ...канд. философ. наук. – Ташкент, 2003. – 20 с.; Қодирова С.М. XX аср ўзбек театрида комедия санъати (шаклланиш ва тараққиёт муаммолари): Сан. фан. докт. дис. автореф. – Тошкент: Фан ва технологиялар марказининг босмахонаси. 2003. – 45 б.; Раҳматуллаева Д.Н. XX аср ўзбек драматургияси ва театр санъатида тарихий драма (шаклланиш ва ривожланиш муаммолари): Санъатш.ф.д. дисс. – Тошкент, 2004. – 330 б.; Умаров М. Маннон Уйғур ижодининг ўзбек театри эстетикаси ривожланишдаги роли: Фал. фан. номз. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2005. – 22 б.; Ахмедов Б.Г. Ўзбек телевизион киносининг ривожланиш тарихи. Санъатш. ф. ном., дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Ахметжонова М.В. Ўзбекистон ёшлар театрлари мустақиллик даврида (янги давр ва унинг саҳнавий ечими). Санъатш. ф. ном. дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Сагдуллаев К.К. Театр ва оммавий ахборот воситалари коммуникатив тизим сифатида. Санъатш. бўйича фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Ўнгбаева Б. Ўзбекистонда 1920-1956 йилларда кино ва театр санъати тарихи. Тарих. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Тошкент. 2018. – 150 б.; Якубов Б.Ч. Замонавий ўзбек драматургияси ва унинг саҳнавий талқини (1991-2016 й.): Санъатш. бўйича фалс. док. (PhD). дисс. – Тошкент, 2019. – 165 б.; Исломилов А. Х. Замонавий ўзбек драма театри режиссураси тараққиётининг асосий йўналишлари (1991-2016 й.): Санъатш. бўйича фалс. док. (PhD). дисс. – Тошкент, 2019. – 155 б. ва бошқалар.

Tarixchi olim N.B. Sayfullayevning⁵ mustaqillik yillarida teatr rivojiga bag‘ishlangan monografiyasida yangi tarixiy sharoitda O‘zbekiston teatr sa’atining zamonaviy holati, rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlarini yoritilgan.

Y.G. Levchenko teatr va kino materiallari asosida badiiy madaniyat va ommaviy ongni o‘zaro ta’sirini falsafiy tadqiq etgan. O‘zbekiston madaniyati va san’atida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan olim Sh. Rizayev ham o‘zbek teatr va kino san’ati olamining turli davrlardagi harakteri, tarixi, sahna ma’naviyati bilan bog‘liq bir qator asarlar yozganligini alohida ta’kidlash lozim.

B. O‘ngbayeva⁶ tadqiqotida XX asrning 20–50-yillarida kino va teatr sohasini rivojlanishini, bu yo‘nalishda sovet davlatining siyosati va mafkuraviy ta’siri oqibatlarini tarixiy aspektda yoritilgan.

Uchinchi guruhga kiruvchi xorijiy adabiyotlar, asosan, sovet davlatidagi milliy masala va madaniyat tarixi bilan shug‘ullangan xorijlik olimlarning asarlaridir⁷. Bu asarlarda sovet davlati hukmronligi yillarida milliy va madaniy siyosatda yo‘l qo‘yilgan xatolar, zo‘ravonliklar tahlil etilgan. Shuningdek, mualliflar tomonidan sovet davlati mafkurasi va milliy siyosatining teatr va kino san’atiga ta’siri, mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo respublikalarida milliy o‘z-o‘zini anglash va madaniy o‘ziga xoslik bu san’at turlarida aksini topishi, milliy kinoindustriya sohasini rivojlanishi, tomoshobinlarni jalg etish texnologiyalari, rejissyorlik va aktyorlik san’ati kabi masalalar ham yoritilgan⁸.

Yuqoridagi dissertatsiyada tadqiq qilinayotgan muammoga tegishli adabiyotlar va ilmiy izlanishlarning ilmiy qiymatini e’tirof etgan holda shuni ta’kidlash joizki, 1991–2020-yillarda O‘zbekistonda kino va teatr san’atining

⁵Сайфуллаев Б.Н.. Янги давр Ўзбекистон театр санъати: ривожланиш муаммолари ва изланиш жараёнлари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011. – 260 б.

⁶ Ўнгбаева Б. Ўзбекистонда 1920-1956 йилларда кино ва театр санъати тарихи. Тарих. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – 150 б.

⁷ Dunn S., Dunn E. Soviet Regime and native culture in Central Asia and Kazakhstan, the major peoples. – Current anthropology. – Chikago, 1967, v. 8. – 158 p., Lewis R.A., Rowland R.H., Clem R.S. Modernization, Population Change and Nationality in Soviet Central Asia. «Canadian Slavonic Papers», v. VXII, Nr.2, 3, 1975. – 298 p., Carrere D., Encansse H. L“empire eclat: La revolte“des national en U.R.S.S. – Paris: Flammarion, 1978. – 324 p.; Sorlin P. The film in history. Restaging the Past. – Oxford: Blackwell, 1980. – 226 p.; Foster C. Political culture and Regional ethnic minorities // Journal of Politics. – Gainesville: 1982, – P. 560-569; Olcott M.B. Yuri Andropov and the «National question» // Soviet Studies. – University of Glasgow. – 1985. – Vol. XXXVII. – № 1. – P. 114-120.; Taylor R. Red stars, positive heroes and personality cults / Stalinism and Soviet Cinema. – London: Routledge, 1993. – P. 69-89; Montgomery David C. Shohimardan: Forging a link in the Chain of Soviet Uzbek Literary Orthodoxy. – 13 Sep. – 2007. – P. 87-100; Miller J. Soviet cinema: Politics and Persuasion under Stalin. – London: B. Tauris, 2010. – 224 p.; Drieu C. Fictions nationales. Cinema, empire et nation en Ouzbekistan (1919-1937). – Paris: Editions Karthala, 2013. – 392 p.

⁸Cloe Drieu, Fictions nationales, Cinema, empire et nation en Uzbekistan (1919–1937), Paris: Editions Karthala, 2013; Cloe Drieu, “Birth, Death and Rebirth of a Nation: National Narratives in Uzbek Feature Films”, in Michael Rouland, Gulnara Abikeyeva, Birgit Beumers (eds), Cinema in Central Asia, London: I.B. – Tauris, 2013. – P. 45–56. Daria Borisova, “A View from Moscow. Myths and Realities of the Uzbek Film Boom”, Studies in Russian and Soviet Cinema 4.2 (2010). – P. 211–219; Gul’nara Abikeeva, “Uzbekistan: ‘Chopping Board’ or Serious Cinema?”. Studies in Russian and Soviet Cinema 4.2 (2010). – P. 221–226; Абикеева Г. Кино Центральной Азии. (1990–2001). – Алматы: Комплекс, 2001. – 342 с.; Абикеева Г. Документальное кино Центральной Азии: две эпохи формирования национального самосознания. – Алматы: ЦЦАК, 2008. – 160 с.; Graham S. Contemporary Uzbek Cinema: The Case of Yusup Razykov // Studies in Russian and Soviet Cinema. Bristol, Volume 4, Number 2, 2010. – P. 227-233. va b.

rivojlanishi maxsus tadqiqot obyekti bo‘lgan emas va uning tarixi yaxlit tarzda o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiytadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Qarshi davlat texnika universitetining “O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot muammolari” bosh mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1991–2020-yillarda O‘zbekistonda kino va teatr san’ati tarixini yoritish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda kino va teatr sohasida yangilanish jarayonlari hamda islohotlarning huquqiy asoslarini tahlil etish;

kino va teatr sohasida amalga oshirilgan islohotlarning yuqori pog‘onaga ko‘tarilishini yoritib berish;

kino va teatr sohasining yirik namoyandalari faoliyati tarixi va sohada “ustoz-shogird” an’analarining rivojlanishini ochib berish;

kino va teatr sohasida o‘rta maxsus va oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimini yoritib berish;

kino sanoatida xalqaro aloqalaridagi yutuq va muammolarini tahlil etish;

teatrlarining xalqaro aloqalari va jahon maydoniga chiqishi masalasini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti 1991–2020-yillarda O‘zbekistonda kino va teatr san’ati tarixi tadqiqot obyekti sifatida belgilab olindi.

Tadqiqotning predmetini 1991–2020-yillarda O‘zbekistonda kino va teatr san’atida yangilanish jarayonlari, amalga oshirilgan islohotlar, ijodiy eksperimentlar, dramaturgiya, rejissura va aktyor ijrochiligidagi uslubiy o‘ziga xosliklar, xususiy kino sanoati va teatrning muqobil shakllarini yuzaga kelish omillari, jahon maydoniga chiqishida xalqaro aloqalarini o‘rganish orqali ko‘rsatish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy izchillik, qiyosiy tahlil, og‘zaki tarix, tizimlashtirish, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Mustaqillik yillarida kino va teatr sohasida amalga oshirilgan islohotlarni uch davrga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqligi: birinchi bosqich 1991–2000-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davrda kino va teatrda ijro etiladigan repertuarlarda sovet mafkurasidan holi bo‘lish jarayoni va ijodiy erkinlik yetakchiligi natijasida milliy, umuminsoniy qadriyatlarimizni san’atda ustuvorligi yaqqol aks etdi; ikkinchi bosqich 2001–2015-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davrda kinofilmlar, asosan, komedik va klassik filmlarga, teatrarda esa maishiy-kulgili, folklor-etnografik spektakllar qatorida millatimizdan yetishib chiqqan buyuk kishilarning hayotini sahnalashtirilishiga e’tibor berildi; uchinchi bosqich 2016-yildan boshlanib, ushbu davrdan boshlab kino va teatr sohasida tub burilish amalga oshirilib, soha yuzasidan me’yoriy huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib tartibga solindi, xalqaro

hamkorlik, jahon darajasida kino va teatr asarlarini yaratish, kadrlar masalasidagi muammolar yechimiga qaratilganligi asoslangan;

1991–2020-yillarida kino va teatr sohasida faoliyat olib borgan yetuk namoyondalar hayoti va ijodi o‘rganilib, teatrda ustoz-shogird an’anasi milliy merosni saqlash va mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilish omillari bilan bog‘liq holda kuchli tarzda davom etganligi va bu jarayon davlat tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanganligi, kino sohasida esa ijodiy yo‘nalishlar boyigan bo‘lsa-da, moddiy-texnik baza yetishmasligi, bozor munosabatlariga ko‘proq bog‘liqlik va ijodiy jamoalarning parokandaligi ustoz-shogird an’anasining teatr dagidek tizimli rivojlanishini cheklanganligi bois teatr san’ati ustoz-shogird maktabini tiklash va rivojlantirishda yetakchi o‘rin tutganligi, kino sohasida esa bu jarayon alohida ijodiy misollar asosida amal qilganligi aniqlangan;

Mustaqillikning ilk yillarida kino va teatr sohasi uchun oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashda iqtisodiy qiyinchiliklar, oliy ta’lim muassasalariga berilgan kvotalarining kamligi tufayli bir qator muammolar vujudga kelganligi, ularni bartaraf etish maqsadida mavjud o‘quv yurtlarining faoliyati takomillashtirilganligi va yangi turdagilarini ta’sis etilishi sohada kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishda muhim omil bo‘lganligi dalillangan;

Mamlakatimizda kino va teatr sohasida amalga oshirilgan hamkorlik aloqalari madaniyatlar almashinuviga, o‘zbek madaniyatining jahon madaniy jarayonlarida jadal integratsiyalashuviga va targ‘ibotiga xizmat qilganligi, o‘zaro tajriba almashish jarayonlari, hamkorlikda amalga oshirilgan festivallar, yurtimizda sur’atga olingan film hamda spektakllarning jahon sahnasidan muvaffaqiyatli o‘rin egallanganligi, xorij mamlakatlari tomonidan ushbu sohani rivojlantirish uchun grantlar ajratilganligi, bu orqali madaniy va xalq diplomatiyasi rivojiga katta hissa qo‘shilganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda kino va teatr san’ati tarixi tahlil etilib, kino va teatr san’atining ustuvor yo‘nalishlarini tatbiq etishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jihatlar aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan respublikadagi madaniyat sohasini rivojlanish davlat dasturlarini amalga oshirish, xususan viloyatlar madaniyat boshqarmalari faoliyatida foydalanishi uchun uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqishiga hizmat qildi.

O‘zbekistonda kino va teatrni rivojlanish tarixiga oid arxiv hujjatlar va boshqa birlamchi manbalar ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda fanga doir ilg‘or yondashuv va usullar qo‘llanilib, O‘zbekiston Milliy Arxivi, Madaniyat vazirligining joriy arxivni, O‘zbekkino milliy agentligining joriy arxivni, O‘zbekiston Kinematografiya agentligining joriy arxivni materiallari va yillik hisobotlari, ko‘p turdagilari ilmiy-tarixiy adabiyotlar, internet saytlari va o‘rganilayotgan davrdagi davriy matbuot hamda birlamchi manbalardan foydalangan holda

xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishda keng qamrovli materiallarni jalg qilgan holda, yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida 1991–2020-yillarda O‘zbekiston teatr va kino san’ati sohasidagi o‘zgarishlar, yutuq va muammolar tarixiy aspektida o‘rganildi, ma’lumotlar umumlashtirildi va tavsiflandi. O‘zbekistonning mustaqillik davri tarixi tarixshunosligi, xususan, O‘zbekiston madaniyati, aynan, kino va teatr san’ati tarixining o‘rganilmagan jihatlari muayyan to‘ldirildi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati jamiyatning ma’naviy barkamolligi, ma’naviy-madaniy rivojlanishi, milliy, umuminsoniy qadriyatlar, milliy g‘oya, madaniy merosni o‘rganishga bag‘ishlangan davlat dasturlarini bajarishda, oliy o‘quv yurtlari talabalariga ma’ruzalar o‘qish jarayonida, madaniyatshunoslik, san’atshunoslik, mustaqillik davri tarixi, madaniyat va san’at tarixi bo‘yicha maxsus kurslar tashkil qilishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni yozishda, shuningdek, tarixiy bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda kino va teatr san’ati tarixi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va olingan ilmiy natijalaridan:

Mustaqillik yillarida kino va teatr sohasida amalga oshirilgan islohotlarni uch davrga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqligi: birinchi bosqich 1991–2000-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davrda kino va teatrda ijro etiladigan repertuarlarda sovet mafkurasidan holi bo‘lish jarayoni va ijodiy erkinlik yetakchiligi natijasida milliy, umuminsoniy qadriyatlarimizni san’atda ustuvorligi yaqqol aks etdi; ikkinchi bosqich 2001–2015-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davrda kinofilmrlarning sifati quyi darajaga tushib ketib, asosan, kassabob filmlarga, teatrarda esa maishiy-kulgili, folklor-etnografik spektakllar qatorida millatimizdan yetishib chiqqan buyuk kishilarning hayotini sahnalashtirilishiga e’tibor berildi; uchinchi bosqich 2016-yildan boshlanib, ushbu davrdan boshlab kino va teatr sohasida tub burilish amalga oshirilib, soha yuzasidan me’yoriy huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib tartibga solindi, xalqaro hamkorlik, jahon darajasida kino va teatr asarlarini yaratish, kadrlar masalasidagi muammolar yechimiga qaratilganligi asoslanganligi qiyosiy tahlillar asosida ochib berishda foydalanilgan (Xalqaro “Oltin Meros” xayriya fondining 2024-yil 21-fevraldagagi 01-13-sonli ma’lumotnomasi). Buning natijasida mamlakatimizdagi kino va teatr sohasini rivojlantirishi va yurtimizda olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar targ‘ibotida hal qiluvchi sohalardan biri ekanligini asoslab berish imkonini dalillar asoida tadqiq etgan.

1991–2020-yillarda kino va teatr sohasida faoliyat olib borgan yetuk namoyondalar hayoti va ijodi o‘rganilib, ulardagi boy meros ustoz-shogird an’anasi orqali shogirdlarga yetkazib berish usullari o‘rganilib, bu an’analar teatrda kino san’atiga nisbatan kuchliroq ekanligi aniqlanganligi bo‘yicha ilmiy xulosalardan ma’lumot sifatida foydalanildi (O‘zbekiston teleradiokompaniyasining 2023-yil

13-dekabrdagi 06/28/1886—son ma'lumotnomasi). Bu mustaqillik kino va teatr san'ati yanada rivojlanishi, yangilanishi davrida yuzaga kelgan ziddiyatlar, ularni hal etish bilan birgalikda mustaqillik yillari ushbu sohalarda tarixiy asarlarni sahnalashtirilishi, bu asarlarning xalqaro tanlovlarda ishtirok etishi bilan keng tomoshabinlar ommasida o'zbek xalqi tarixi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlariga xizmat qildi.

Mustaqillikning ilk yillarida kino va teatr sohasi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashda iqtisodiy qiyinchiliklar, oliy ta'lim muassasalariga berilgan kvotalarning kamligi tufayli bir qator muammolar vujudga kelganligi, ularni bartaraf etish maqsadida mavjud o'quv yurtlarining faoliyati takomillashtirilganligi va yangi turdagilarini ta'sis etilishi sohada kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishda muhim omil bo'lganligi dalillanganligi bo'yicha ilmiy xulosalardan ma'lumot sifatida foydalanildi (Respublika ma'naviyat-ma'rifat markazi hududidagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 1-iyuldaggi 289-sonli dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan taklif, tavsiya va xulosalar ijtimoiy boshqaruvning ma'naviy asoslarini falsafiy tahlil qilishga xizmat qilgan.

Mamlakatimizda kino va teatr sohasida amalga oshirilgan hamkorlik aloqalari madaniyatlar almashinuviga, o'zbek madaniyatining jahon madaniy jarayonlarida jadal integratsiyalashuviga va targ'ibotiga xizmat qilganligi, o'zaro tajriba almashish jarayonlari, hamkorlikda amalga oshirilgan festivallar, yurtimizda sur'atga olingen film hamda spektakllarning jahon sahnasidan muvaffaqiyatli o'rin egallanganligi, xorij mamlakatlari tomonidan ushbu sohani rivojlantirish uchun grantlar ajratilganligi, bu orqali madaniy va xalq diplomatiyasi rivojiga katta hissa qo'shilganligi asoslanganligi bo'yicha ilmiy xulosalardan ma'lumot sifatida foydalanildi (Respublika ma'naviyat-ma'rifat markazi hududidagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 1-iyuldaggi 289-sonli dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan taklif, tavsiya va xulosalar ijtimoiy boshqaruvning ma'naviy asoslarini falsafiy tahlil qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy qarashlar, g'oyalar va tadqiqotning asosiy ilmiy natijalari dissertant tomonidan chop etilgan qator ishlarda o'z aksini topgan. Shuningdek, dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalariga tayanib, tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan nashrlarda 18 ta maqola, shu jumladan, 2 tasi respublika, 12 tasi xorijiy jurnallarda, 4 tasi xalqaro va respublika konferensiyalari hamda ilmiy to'plamlarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, tadqiqot qismi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**1991–2020-yillarida O‘zbekistonda kino va teatr sohasida amalga oshirilgan islohotlar va uning huquqiy asoslari**” nomli birinchi bobida mustaqillik yillarida O‘zbekistonda teatr sohasida yangilanish jarayonlari va uning huquqiy asoslari tahlil qilingan, shuningdek, kino san’atining rivojlanish istiqbollari va sohada amalga oshirilgan islohotlar tarixi yoritilgan.

Mazkur bobning *birinchi paragrafida* O‘zbekistonda teatr sohasida yangilanish jarayonlari va uning huquqiy asoslarini yaratilishi uch bosqichga bo‘lib o‘rganilgan.

Mustaqillik yillarida kino va teatr sohasida davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlarni uch davrga bo‘lish mumkin: birinchi bosqich 1991–2000-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davrda kino va teatrda ijro etiladigan repertuarlarda sovet mafkurasidan holi bo‘lish jarayoni va milliy, umuminsoniy qadriyatlarimizni san’atda singdirilishi ustuvorligi, ijodiy erkinlik yaqqol aks etgan; ikkinchi bosqich 2001–2015-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davrda kinofilmlarning sifati quyi darajaga tushib ketib, asosan, kassabob filmlarga, teatrarda esa maishiy-kulgili, folklor-etnografik spektakllar qatorida millatimizdan yetishib chiqqan buyuk kishilarning hayotini sahnalashtirilishiga e’tibor berildi; uchinchi bosqich 2016-yildan boshlanib, ushbu davrdan boshlab kino va teatr sohasida tub burilish amalga oshirilib, soha yuzasidan me’yoriy huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib tartibga solindi, xalqaro hamkorlik, jahon darajasida kino va teatr asarlarini yaratish, kadrlar masalasidagi muammolar yechimini topdi.

1991-yil 2-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 277-sonli “Viloyatlardagi teatrlarning yubileylarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori⁹ning qabul qilinishi mamlakatimizda teatr sohasini rivojlantirish uchun dastlabki muhim qadamlardan bir bo‘ldi.

1995-yil 28-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 415-sonli “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni

⁹ O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 28-ish, 65-varaq.

amalga oshirish masalalari haqida”gi qarori¹⁰ hamda 1998-yil 26-martdagি O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1980-son “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni¹¹ga binoan teatrlar davlat byudjeti hisobiga qo‘llab-quvvatlandi.

1998-yil 22-mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 223-sonli “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori¹²ga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998-yilda “O‘zbekteatr“ ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

2001-yilda respublika teatr san’atida muhim tarixiy voqeа sodir bo‘ldi. Hamza nomidagi O‘zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi. 2001-yil 21-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-2942-sonli “Hamza nomidagi o‘zbek davlat akademik drama teatriga “milliy teatr” maqomini berish to‘g‘risida”gi Farmoni¹³ga binoan teatriga “Milliy teatr” maqomi berildi.

2010-yil 3-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 285-son “Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiyasi faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarori¹⁴ qabul qilindi. Bu qarorni qabul qilishda madaniyat va san’atning xalq hayotidagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, madaniyat va san’at bilan yaqindan bahramand etishni nazarda tutib yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng qamrab olish, shuningdek, teatr-studiyaning to‘laqonli faoliyat yuritishini tashkil etish hamda faoliyatini yanada takomillashtirish maqsad qilib olindi.

2014-yil 25-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 170-sonli “Farg‘ona viloyat teatr-konsert saroyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori¹⁵ga muvofiq mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligi arafasida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Farg‘ona viloyat markazida Teatr-konsert saroyi bunyod etildi. U 2014-yilning 6-dekabr kuni tantanali ravishda ochildi.

2018-yil 5-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 9-sonli “2018–2022-yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi qarori¹⁶ teatr san’ati sohasidagi tomosha va konsert dasturlarini

¹⁰ O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 34-ish, 21-varaq.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 26-martdagи PF-1980-sonli “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 4-son, 61-modda.

¹² O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 34-ish, 48-varaq.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 21-sentabrdagi PF-2942-sonli “Hamza nomidagi o‘zbek davlat akademik drama teatriga “milliy teatr” maqomini berish to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 203-modda.

¹⁴ O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 38-ish, 17-varaq.

¹⁵ O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 38-ish, 54-varaq.

¹⁶ O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 40-ish, 29-varaq.

yaratishda, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida ona Vatanga muhabbat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib sahna asarlari, tomoshalar va konsert dasturlari bilan hissa qo‘shib borish, teatr va tomosha san‘atini keng targ‘ib etish maqsadida xorijiy muassasalar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish kabi bir qancha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydag‘i 372-sonli “2018–2019-yillarda zamonaviy kinoteatrlar tarmog‘ini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori¹⁷ ga ko‘ra, yurtimizda 2018–2019-yillarda jami 49 ta, xususan 25 ta 1 etajli, 12 ta 2 etajli, 12 ta yozgi kinoteatrlar qurildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-noyabrdagi 754-sonli “Respublikada ayrim davlat teatrlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori¹⁸ qabul qilindi. Qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Navoiy, Toshkent, Namangan va Sirdaryo viloyatlari hokimliklarining taklifiga ko‘ra, Navoiy va Toshkent viloyatlarida – qo‘g‘irchoq teatrlari va musiqali drama teatrlari, Namangan va Sirdaryo viloyatlarida – qo‘g‘irchoq teatrlari (keyingi o‘rinlarda – davlat teatrlari) faoliyatini tashkil etildi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda ma’naviyat sohasida milliy mafkuramizni shakllantirish, yosh avlodni madaniy merosimiz, boy an‘analarimiz va umuminsoniy qadriyatlarimizga ehtirom, ulug‘ yurtimiz va istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasining dastlabki o‘rinda turishi O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosatning naqadar to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib beradi. Tarixiy taraqqiyot har bir davrning o‘ziga xosligi, kirib kelgan yangiliklari va o‘zgarishlari bilan harakterlanadi.

Birinchi bobning *ikkinchi paragrafida* O‘zbekistonda mustaqillik yillarda kino san‘atining rivojlanishga doir davlat siyosati va sohada amalga oshirilgan islohotlarning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Mustaqillikka erishgach, mahalliy kino jarayonini davlat tomonidan tartibga solish zarurligi to‘g‘risidagi g‘oya to‘liq amalga oshirildi va hukumatning qator qarorlarida o‘z ifodasini topdi. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston kinematografiyasi moliyalashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sohasida qator o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Mamlakat mustaqillikka erishish arafasida yetarli mablag‘ yo‘qligi taraqqiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatdi Kinoga yordam davlat tomonidan ko‘rsatildi, bu esa mahalliy kino sanoatini keng qo‘llab-quvvatlashni boshladi.

1992-yil 6-maydag‘i O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 224-sonli “O‘zbekiston Respublikasi davlat kinokompaniyasi (“O‘zdavkinokompaniya”) faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori¹⁹ ga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat kinokompaniyasi tashkil etildi va ushbu tashkilot O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidan chiqarildi.

¹⁷ O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 40-ish, 38-varaq.

¹⁸ O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 40-ish, 46-varaq.

¹⁹ O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 28-ish, 68-varaq.

1996-yil 29-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1427-sonli “O‘zbekkino” davlat-aksionerlik kompaniyasini tuzish to‘g‘risida”gi Farmoni²⁰ va 1996-yil 12-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 247-sonli “O‘zbekkino” davlat aksionerlik kompaniyasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida”gi qarori²¹ qabul qilindi. Bundan ko‘zlangan maqsad Vatanimiz kinematografiyasini tashkil yetish darajasi hamda uning O‘zbekiston xalqining ma’naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, ko‘p asrlik ma’naviy, madaniy qadriyatlar va milliy an’analarini qayta tiklash hamda boyitish, shuningdek, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda milliy kinematografiya taraqqiyotini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish edi.

2004-yil 17-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 126-sonli “O‘zbekkino” milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori²² bilan “O‘zbekkino” Davlat aksiyadorlik kompaniyasi Milliy aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi hamda “O‘zbekkino” agentligi tashkil etildi. Agentligni tashkil etishdan asosiy maqsad kinematografiya sohasidagi respublika va hududiy organlar faoliyatining samaradorligini ta’minlash, kino va video mahsulotlarini ishlab chiqarish, ko‘paytirish hamda namoyish etish tizimining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish edi.

2012-yil 15-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 72-sonli “Xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida filmlarni kino va video tasvirga olish tartibi to‘g‘risida”gi qaroriga²³ binoan xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida filmlarni kino va video tasvirga olish faqat xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida badiiy filmlarni kino va video tasvirga olishga ruxsatnomalar asosida amalga oshirila boshlandi.

O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2017-yil 7-avgustdagi “Milliy kinematografiyanı rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori²⁴ kinematografiya va unga aloqador sohalardagi huquqiy munosabatlarning umumiy tamoyillarini muvofiqlashtirishda hal qiluvchi qadam bo‘lib, ushbu xilma-xil sohadagi munosabatlar majmuasini huquqiy tartibga solishning yagona yaxlit tizimini yaratish imkonini berdi. Ijodiy industriyani rivojlantirish, shuningdek, mahalliy kino sanoatining uzoq muddatli istiqbolda samarali faoliyat yuritishi uchun asosiy shart-sharoitlarni yaratish va madaniy ne’matlardan teng foydalanishni ta’minlash. Hujjatda me’yoriy-huquqiy bazaning mukammal emasligi soha rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani ham qayd etilgan.

Davlat rahbari tomonidan 2020-yilda davlat buyurtmasi asosida kino mahsulotlari ishlab chiqarishni moliyalashtirish takomillashtirilishi, shu nuqtayi nazardan “Kinematografiyanı 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ni hamda

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 4-son, 44-modda.

²¹ O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 34-ish, 43-varaq.

²² O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 36-ish, 12-varaq.

²³ O‘zMA. Fond M-37. 1-ro‘yxat, 38-ish, 14-varaq.

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 33-son, 834-modda.

“Kinematografiya to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqilishini ta’kidlanganligi kino sohasidagi islohotlarni yuqori pog‘onaga olib chiqishi belgilangan²⁵.

Xulosa qilib aytganda, Mamlakatimizda keyingi yillarda madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan musiqa, kino, teatr sohasida va bu soha rivoji uchun amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan qator qaror va farmonlar, huquqiy normativ hujjatlar qabul qilindiki, bu o‘z navbatida soha rivoji uchun, uning ravnaqi uchun yangi-yangi imkoniyatlar yo‘lini ochib bermoqda.

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonda kino va teatr sohasining yetuk namoyandalari faoliyati va kadrlar tayyorlash masalasi” deb nomlangan ikkinchi bobida kino va teatr sohasining yirik namoyandalari faoliyati tarixi va sohada “ustoz-shogird” an’analarining yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek, sohada kadrlar masalasi: o‘rta maxsus va oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimi ning ahamiyati yoritilgan.

Mazkur bobning *birinchi paragrafida* kino va teatr sohasining yirik namoyandalari faoliyatidagi yangilanishlar va sohada “ustoz-shogird” an’analarining rivojlanishi tadqiq etilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda kino va teatr sohasida erishilgan yutuqlar, ushbu sohada faoliyat olib borgan yirik namoyondalar mehnatining bugungi kundagi mevasi desak adashmagan bo‘lamiz. Bu insonlarning kino va teatr sohasida ko‘rsatgan jonbozliklari millatning, xalqning ma’naviyatini oshirishga xizmat qildi. “Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston qiyofasini shakllantirish, o‘z oldimizga qo‘ygan buyuk maqsad – Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda siz, hurmatli ijodkor ziyolilarimiz hal qiluvchi kuch sifatida maydonga chiqayotganingizni el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi” – deb ta’kidlagan edi yurtboshimiz²⁶.

1991-yilda Hamza nomli drama teatrida va Surxondaryo viloyat teatrida Uyg‘un va I. Sulton asarlari asosida “Alisher Navoiy”²⁷, “Iskandar”, 1992-yilda K. Marlo asari asosida sahnalashtirilgan “Amir Temur”, 1993-yilda Xorazm viloyat drama teatrida E. Samandarov asari asosida sahnalashtirilgan “Jaloliddin Manguberdi”, 1998-yilda A. Navoiy nomidagi opera va balet akademik katta teatrda “Al-Farg‘oniy” operasi, Samarqand viloyat drama teatrida U. Qo‘chqor asari asosida sahnalashtirilgan “Imom al-Buxoriy”, Farg‘ona viloyat rus drama teatrda Y. Sulaymon asari asosida sahnalashtirilgan “Farg‘ona farzandi”, Andijon viloyat drama teatrda U. Azim asari asosida sahnalashtirilgan “Alpomishning qaytishi” va boshqa qator asarlar yaratildi.

Shundan so‘ng birin-ketin respublika teatr sahnalarida Hayitmat Rasulning “Piri koinot” (Milliy teatr, 1998-y.), Usmon Azimning “Alpomishning qaytishi” (Andijon viloyat teatri, 1999-y.), Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom”

²⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //www.aza.uz.

²⁶O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “O‘zbekiston madaniyat va san’at sohasi xodimlariga” bag‘ishlangan nutqi. / Xalq so‘zi gazetasi. 2022-yil 16-aprel. – № 77.

²⁷ Xalq so‘zi. 2001-yil 12-may. №90-son.

(Yosh tomoshabinlar teatri, 2000-y.) kabi sahnalashtirish uslubi, aktyorlik mahorati nuqtayi nazaridan yuqori saviyali sahna asarlari maydonga keldi.

Bu davrda teatr repertuarlarida asosan tarixiy mavzu hamda komediya san'atiga mansub spektakllar o'rinn egalladi. 1999-yil 6-noyabr "Alpomish" dostonining 1000 yilligi ham nishonlandi. Ana shu sahnaga bag'ishlab O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan ko'rik tanlov o'tkazildi. Tanlovda Usmon Azimning "Alpomishning qaytishi" dramasi bosh sovrin sohibi bo'ldi. Muqumiy nomidagi respublika musiqali teatrining ijodiy jamoasi asarning musiqali drama variantini yaratdi²⁸. "Alpomishning qaytishi" spektaklini dramaturg Usmon Azim, bastakor Baxrullo Lutfullayev, rassom Shuxrat Abdumalikov, rejissor Valijon Umarov va teatr jamoasining samarali ijodiy hamkorligi mahsuli bo'lib qoldi²⁹. Bu xususda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti quyidagicha ta'kidlagan edi. "Yuksak badiyat va haqqoniylilik, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug'orilgan asarlar yaratish – barcha san'at turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo'lishi tabiiy. Bu maqsadga erishish uchun yosh va iste'dodli dramaturg va rejissorlar, teatr aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazish, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi"³⁰.

Respublikadagi Yoshlar teatrlari muammolari bilan shug'ullangan M. Ahmadjonova shunday ma'lumot keltiradi: "Repertuar tahlili shuni ko'rsatadiki, Mustaqillikning 16 yili ichida O'zbekiston Yoshlari teatrida 59 ta spektakl sahnalashtirilgan bo'lib, shundan drama – 10 ta, komediya – 6 ta, tragikomediya – 1 ta, ertak – 25 ta, musiqali plastik shou – 9 ta, myuzikl – 3 ta, buffonada – 1 ta, paradoks – 1 ta. Uchta spektakl janrlar aralashma qilib (panorama) eksperiment tarzida ishlangan. Repertuardagi spektakllarning 18 tasi mumtoz dramaturgiya asarlari (shulardan 3 tasi qayta tiklangan variantlar), zamonaviy mavzuda – 5 ta, tarixiy mavzuda atigi 1 ta asar, biroq ertak va rivoyatlar 31 ta spektakl asosini tashkil etgan"³¹.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekistondagi Shvetsariya hamkorlik byurosi, "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi, birgalikda teatr san'ati ustalarining "Ustoz va shogird" maktabi ilk marotaba 2015-yil Buxoroda o'z ishlarini boshlagandi³². Bu yil bo'lsa "Ustoz va shogird" an'anaviy teatr maktabi Samarqand teatr ustalari bilan hamkorlikda ijodiy faoliyatini olib bordi. O'tgan yili "Ustoz va shogird" teatr maktabida yurtimizning ko'pgina viloyat teatrlaridan tashrif buyurgan talantli yoshlar tahsil olishgandi. Bu yil esa Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyat teatrlaridan kelgan yosh rejissorlar tahsil olishdi. Aslida "Ustoz va shogird" teatr maktabining tashkil

²⁸ Туляходжаева М. История театра. Узбекский театр периода Независимости. ... – 39 с.

²⁹ Bayandiiev T. Alpomish-sahnada // Xalq so'zi. 2001-yil, 10-avgust.

³⁰ Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 58 b.

³¹ Bayandiiev T., Ikromov H., Ahmadjonova M. O'zbek teatrida milliy g'oya talqini. – Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi, 2009. – 143 b.

³² O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Madaniyat vazirligining 2015-yilgi hisobotlari.

qilinishidan ko‘zlangan maqsad Respublikamiz teatrlarida ishlayotgan yosh ijodkorlarni profissional teatr muhitida tarbiyalash, falsafiy va zamonaviy san’at haqida ularga yetarlicha ma’lumotlar berishdan iborat³³.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek milliy san’atida ushbu aktyorlar havas qilsa arzigulik ijod qilishdi. Ularning ijodi tarixmizda mangu va barhayotdir. Ma’lumki, oliv o‘quv yurtlarida bo‘lg‘usi mutaxassis o‘qituvchilarga tarbiyaviy ta’sir qiluvchi ustoz-shogird an’analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi. Tez sur’atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta’lim jarayonining qirralari mukammallashib borayotganligi, ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarni keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo‘lg‘usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o‘z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e’tibor qaratish, ustoz-shogirdlik an’analaridan o‘rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o‘z ifodasini topdi.

Ikkinci bobning *ikkinchi paragrafida* Kino va teatr sohasida kadrlar masalasi: o‘rta maxsus va oliv ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimi tahlil etilgan.

Har qanday soha rivojining asosi, ma’lumki, malakali kadrlar hisoblanib, O‘zbekistonda kino ta’limi bozorining miqdoriy va sifat jihatidan tahlili uning o‘sishi uchun katta salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Kino mакtablarining paydo bo‘lishi faqat vaqt masalasidir.

Madaniyat vazirligi tomonidan oliv ma’lumotli kadrlar tayyorlashda mavjud muammolarni hal etish uchun bir qator chora-tadbirlar ham ko‘rilgan. Xususan, respublika viloyatlarida ishlayotgan o‘rta ma’lumotli xodimlar uchun oliv va o‘rta-maxsus madaniyat bilim yurtlariga maxsus kvotalar ajratilib³⁴, nomzodlar ro‘yxati viloyat madaniyat boshqarmalari tomonidan shakllantirilgan. Jumladan, 1991-yilda Xorazm viloyati bo‘yicha oliv va o‘rta-maxsus madaniyat bilim yurtlariga 53 nafar, shulardan 22 nafari Toshkent davlat madaniyat institutiga, 17 nafari Toshkent madaniy-oqartuv texnikumiga, 10 nafari Buxoro madaniy texnikumiga, 4 nafari Qarshi madaniy-o‘quv texnikumiga o‘qishga kirgan³⁵.

1992-yilda O‘zbekistonda madaniyat vazirligi tasarrufida Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, Mannon Uyg‘ur nomidagi san’at instituti, Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriysi³⁶ kabi oliv o‘quv yurtlari hamda 24 ta o‘rta-maxsus o‘quv yurtlari faoliyat olib borgan³⁷. Davlat tomonidan belgilangan kvota asosida 1991-1992-yillarda Toshkent davlat madaniyat institutiga 631 ta, Mannon Uyg‘ur nomidagi san’at institutiga 143 ta,

³³ O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Madaniyat vazirligining 2015-yilgi hisobotlari.

³⁴ Ayrim madaniyat muassasalarida maxsus mutuxassislik bilimiga ega bo‘limgan o‘rta ma’lumotli xodimlar ham faoliyat yuritgan, masalan, kutubxonalarda.

³⁵ O‘zMA. Fond M-7. 1-ro‘yxat, 648-ish, 6-varaq (Ushbu ma’lumot 1998 yillarga taalluqli ekanligini ta’kidlash lozim)

³⁶ 2002-yildan O‘zbekiston konservatoriysi nomida faoliyat yuritib keladi.

³⁷ O‘zMA. Fond M-7. 1-ro‘yxat, 58-ish, 155-varaq.

M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasiga 131 ta, jami 905 ta talaba qabul qilingan³⁸.

1997-yilda Surxondaryo viloyatidan bo‘lgan 45 nafar yosh mutaxassislar madaniyat va san’at sohasi bo‘yicha oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarini bitirgan hamda ular ish bilan ta’minlangan. Bundan tashqari, viloyat madaniyat muassasalarida faoliyat yuritayotgan 28 nafar rahbar va mutaxassis xodimlar Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida, Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at institutida, Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyanalarida malaka oshirgan. 1999-yilga kelib, malaka oshiruvchi kadrlar soni 70 nafarni tashkil qilgan³⁹.

2005-yil 21-iyulda Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at instituti faoliyatini tubdan yaxshilash, teatr san’ati, kino, televideniya, san’atshunoslik hamda mazkur sohaning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash, zurur moddiy-texnik baza va shart-sharoit yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari⁴⁰ tizimda amalga oshirilgan islohotlarning davomi bo‘ldi.

Madaniyat, teatr san’ati, kino va televidiniye sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan, xalq ijodiyoti an’analarini asrab-avaylash va rivojlantirishga qodir, badiiy ijodning zamonaviy metodlari, innovatsion texnika va texnologiyalarni puxta egallagan yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida, 2008-yil 28-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston davlat san’at institutining Nukus filialini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Nukus filiali tashkil etildi⁴¹. Ushbu filialga dastlab “Sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi” va “Drama teatri va kino aktyorligi san’ati” ta’lim yo‘nalishlarida 25 nafar talaba qabul qilingan bo‘lsa, keyingi yillarda 9 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 700 nafardan ortiq talaba tahlil oldi.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida 2016 yilga kelib, 4 ta: Kino, televideniye va radio san’ati, Kutubxona-axborot faoliyati, Teatr san’ati, Xalq ijodiyoti fakultetlari mavjud edi. Ularda quyidagi 15 ta ixtisoslik bo‘yicha, aktyorlik mahorati va rejissura, san’atshunoslik va teatrshunoslik, ovoz rejissorligi va operatorlik mahorati, xalq ijodiyoti, madaniyat va san’at muassasalarini boshqarish, teatrshunoslik, sahna va ekran dramaturgiyasi, san’atshunoslik jurnalistikasi, dramatik teatr va kino aktyorlik san’ati, qo‘g‘irchoq, estrada, musiqiy teatr aktyorligi san’ati, drama teatri rejissorligi, televideniya va radio

³⁸ O‘zMA. Fond 2487. 3-ro‘yxat, 6950-ish, 21-varaq.

³⁹ O‘zMA. Fond M-7. 1-ro‘yxat, 653-ish, 42-varaq.

⁴⁰ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 28-29-son, 208-modda.

⁴¹ Qarang: <https://lex.uz/docs/1348649>.

rejissorligi, estrada va ommaviy tomoshalar rejissorligi, kinoteleoperatorlik, kino, televideniya, radio va teatr tomoshalari ovoz rejissorligi mutaxassislari tayyorlandi⁴².

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, zamon talablariga mos, salohiyatli kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratilgan. Ushbu masalaga doir qabil qilingan farmon va qarorlar madaniyat sohasi uchun malakali mutaxassislarini tayyorlashda katta o‘rin tutdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashga ham salbiy ta’sir qildi. San’at va madaniyat sohasidagi o‘rta-maxsus va oliy o‘quv yurtlari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida alohida Markazning tashkil qilinganligi sohada faoliyat yuritadigan xodimlarning zamonaviy ish usullarini qo’llash, malakasini takomillashtirishiga xizmat qildi.

Dissertatsiyaning “1991–2020-yillarda O‘zbekistonning kino va teatr sohasidagi xalqaro hamkorlik masalasi” nomli uchinchi bobida O‘zbekistonda kino san’atida xalqaro hamkorlik: yutuq va muammolar, shuningdek, mustaqillik yillarida O‘zbekiston teatrlarining xalqaro aloqalari masalalari ko‘rib chiqilgan.

Uchinchi bobning *birinchi paragrafida* O‘zbekistonda kino san’atida xalqaro hamkorlik: yutuq va muammolarini tahlil qilingan.

Milliy kinematografiyaning izchil rivojlanishi uchun uni ijodiy yutuqlar va tajriba almashishning global jarayoniga kiritish imkoniyati, shuningdek, jahon kinosining ijodiy amaliyoti va tendensiyalarini tushunish alohida ahamiyatga ega. Bu shuni ko‘rsatadiki mamlakat milliy kinoning xalqaro maqomini oshirishga qaratilgan chinakam ijodiy loyihalar samarali amalga oshirish vositasini yaratishi kerak. Ijodiy misol sifatida biz bir qator loyihalarni keltirishimiz mumkin.

O‘zbek filmlarini xorijiy ekranlarda targ‘ib qilish maqsadida xorijda zamonaviy o‘zbek kinosi kunlari va retrospektiv namoyishlar o‘tkazish an’anaga aylangan. Mustaqillik yillarida ularda 180 dan ortiq badiiy, hujjatli va animatsion filmlar suratga olindi⁴³. Keyingi yillarda O‘zbekiston badiiy kinosida yurtimizning xalqaro festivallarga taqdim etilgan o‘ziga xos eksport mahsulotiga qiziqish tamoyili paydo bo‘ldi⁴⁴.

Xalqaro animatsion filmlar festivali (2005). Tehron, Eron Rejissor D. Vlasov tomonidan suratga olingan “Gonchar” animatsion filmi “Animatsiyadagi eng yaxshi falsafiy mavzu uchun” nominatsiyasida mukofotga sazovor bo‘ldi. XXVII Moskva xalqaro kinofestivali, Rossiya Rejissor Yusup Razikovning “Qiz cho‘pon” asari (2005) milliy mavzuni mohirona ishlab chiqqani uchun Rossiya Kinoklublari Konfederatsiyasining diplomiga sazovor bo‘ldi.

“Yevroсиyo” V Xalqaro kinofestivali (2008). Ostona, Qozog‘iston Festival yakunlariga ko‘ra, Diaz Rahmatov rejissor Xatam Fayziev tomonidan suratga

⁴²O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Madaniyat vazirligining 2016-yilgi hisobotlari.

⁴³O‘zbekkino milliy agentligi joriy arxiv materiallari. Milliy agentligining 2020-yilgi hisobotlari.

⁴⁴Irisqulov O. O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixi. – Samarqand: SamDU, 2021. – B. 143.

olingan “Kichik odamlar” filmidagi eng yaxshi erkak rolini ijo etgani uchun mukofotga sazovor bo‘ldi⁴⁵.

Bolalar va o‘smlar filmlarining xalqaro kinofestivali (2010). Yerevan, Armaniston Rejissyor D. Isxakov tomonidan suratga olingan “Chatrang yurtidagi sarguzasht” filmi eng yaxshi texnik effektlar uchun festivalning sovrini va diplomiga sazovor bo‘ldi. Rejissor D. Qosimov tomonidan suratga olingan “Suv ortidan” filmida bosh rolni ijo etgan aktyor Erkin Komilov “Eng yaxshi erkak roli uchun” mukofoti va diplomga sazovor bo‘ldi⁴⁶.

MDH va Boltiqbo‘yi mamlakatlari XXI “Kinoshock” ochiq kinofestivali (2012). Anapa, Rossiya “Oltin uzum” Kinoshock festivalining bosh sovrini rejissor Ayub Shaxobiddinovning “Jannat maskanim” (“Parizod”) filmiga nasib etdi⁴⁷.

“Shlingel – 2014” XIX Xalqaro bolalar va o‘smlar kinofestivali (2014). Xemnits, Germaniya kinorejissori Qamara Kamalovaning “Unutma meni” (“Unutma meni”) “Tomoshabinlar mukofoti”ga sazovor bo‘ldi⁴⁸.

2016-yildan boshlab festival O‘zbekistonning boshqa shaharlarida ham o‘tkazila boshladi. 2017-yilda festival Toshkentdan tashqari Navoiy va Nukusda, 2018-yilda Shahrisabz va Farg‘onada, 2019-yilda Urganch, Nukus va Jizzaxda tashkil etildi. Festival doirasida latviyalik hujjatli film kinorejissyori Daynis Klava yosh kino prodyuserlarga bir nechta seminarlar o‘tkazish uchun mamlakatga tashrif buyurdi. 2020-yilda Yevropa Komissiyasining moliyaviy ko‘magi bilan hujjatli filmlar yaratish bo‘yicha birinchi Xalqaro VI-FOCUS kino laboratoriysi ishga tushirildi⁴⁹.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kino sohasida olib borilgan islohotlar hamda xalqaro hamkorlikning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, yurtimizda kino san’atini rivojlanishiga o‘zining samarali ta’sirini ko‘rsatdi. Kino vakillarini xorij mutaxassislari bilan o‘zaro tajriba almashinuvi natijasida yurtimizda sur’atga olingan kinolar sifati oshdi va jahon darajasiga olib chiqishga harakat qilindi. Bu esa o‘z navbatida kino sohasida mamlakatimizda xalqaro loyihalarning amalga oshirilishiga hamda milliy kinolaramizning jahon kinoteatrлaridan o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur bobningikkinci paragrafida O‘zbekiston teatrlarining xalqaro aloqalari masalasi ochib berilgan.

Bugungi kunda o‘zbek teatrining jahon teatrlari bilan hamkorlikda rivojlanmoqda. Keyingi yillarda o‘zbek teatri namoyondalari Germaniya, Fransiya, Hindiston, AQSH, Belgiya, Misr kabi davlatlarda bo‘lgan nufuzli festivallarda qatnashdilar. O‘zbek rejissorlari va aktyorlarini boshqa mamlakatlarga taklif qilish ham odat tusini olgan. Qozog‘iston, Tojikiston, AQShdan kelgan rejissyorlar

⁴⁵ O‘zbekkino milliy agentligi joriy arxiv materiallari. Milliy agentligining 2008-yilgi hisobotlari.

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Madaniyat vazirligining 2010-yilgi hisobotlari.

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Madaniyat vazirligining 2020-yilgi hisobotlari.

⁴⁸ O‘zbekkino milliy agentligi joriy arxiv materiallari. Milliy agentligining 2020-yilgi hisobotlari.

⁴⁹ https://www.eeas.europa.eu/uzbekistan/yevropa-ittifoqi-va-ozbekiston_uz?s=233

teatrlarimiz sahnasidan spektakllar sahnalashtirmoqdalar. Ispaniyalik va amerikalik san'at ustalari operalarda drijorlik qilmoqdalar. O'zbekistonlik rejissyorlar esa Fransiya, AQSH, Izroil, Rossiya teatr sahnalarida o'z sahna ko'rinishlarini namoyish qilganlar. Bunga oid masalalar ko'p bo'lmasa-da ular ravnaq topib bormoqda natijalar esa bunday ijodiy aloqalarni samarali ekanidan dalolat beradi.

Xalqaro aloqalarni rivojlantirishda O'zbekiston Yoshlari teatrining faoliyati ibratli bo'ldi. 1995-yil 4-sentabrda O'zbekiston – Gruziya hukumatlari o'rtasida fan, madaniyat va ijtimoiy sohalarda hamkorlik to'g'risidagi Bitimiga asosan 2000-yil 26-mart – 26-may kunlari bo'lib o'tgan "Xumo" yoshlar teatrining 2-festivalida Gruziyaning Poti shahri V. Guniya nomidagi Davlat drama teatri jamoasi ham ishtirok etdi⁵⁰.

O'zbek Milliy akademik drama teatrining 2004-yil 23–30-noyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining poytaxti Moskva shahridagi "Millatlar teatrida" "Donishmand Natan", "Ayolg'u", "Qirmizi olma", "O'tgan zamon hangomalari" spektakllarini namoyish etishi o'zbek-rus teatr aloqalarida muhim xalqa bo'lish bilan birga milliy teatr istiqboli uchun katta ahamiyat kasb etdi⁵¹.

O'zbekiston Davlat yoshlar teatri bo'lsa Sankt-Peterburgda o'tkaziladigan "Boltiq uyi" (Baltiyskiy dom), Moskvada o'tkaziladigan Chexov festivallarida doimiy ishtirok etib keldi⁵².

O'zbek Milliy akademik drama teatrining Germaniya Federativ Respublikasi elchixonasi, Fridrix Nauman fondi homiyligida sahnalashtirilgan "Donishmand Natan" spektaklini 11–15-iyunda Termiz va Qarshi shaharlarida namoyib etishi, ijodiy uchrashuvlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qozog'iston Respublikasining Almati shahrida 2008-yilning 2–6-sentabr kunlari o'tkazilgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining II Xalqaro teatr san'ati festivalida Farg'ona viloyat teatri jamoasi "Kampir topaymi, dadajon?" (X. Xursandov) spektakli bilan qatnashib, o'zbek milliy teatr san'atini katta muvaffaqiyat bilan namoyish etdi. Spektakldagi Zulfiya momo obrazini mahorat bilan ijro etgan O'zbekiston xalq artisti Yorqinoy Hotamova "Eng yaxshi ayol roli ijrosi uchun", Sobirjon rolini gavdalantirgan yosh aktyor Murod Xalilov "Eng yaxshi epizodik rol ijrosi uchun" nominatsiyalari sazovor bo'ldilar⁵³.

2010-yilda Qozog'iston Respublikasining Olmaota shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlarining Xalqaro teatrlar festivalida ishtirok etib, 3 o'rinni egalladi. O'zbekiston xalq artisti G. Ravshanova "Eng yaxshi ayol", Y. Mirqurbanov "Eng yaxshi erkak roli" nominatsiyalari g'olibi bo'ldilar⁵⁴. Umuman, Surxondaryo

⁵⁰ O'zMA M-38, ro'yhat-1, yig'ma jild-156, 147-varaq.

⁵¹ "O'zbekteatr" birlashmasining mamlakat teatrlarining joiry arxiv materiallari. Birlashmaning 2004-yilgi hisobot materiallari.

⁵² Туляходжаева М. Диолог театральных культур // ЎзДСМИ Хабарлари. 2019/3. – С. 15.

⁵³ Sayfullayev N. Mustaqillik davri O'zbekiston teatr san'ati tarixi. Tarix fanlari doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – B. 114.

⁵⁴ Tursunov T. Sahna va zamon. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007. – 336 b.

teatr jamoasi bu kabi g‘oyaviy jihatdan mukammal asarlarni sahnalashtirib, teatr repertuarlarini boyitish bilan birga, mustaqillik davridagi ijro imkoniyatini, aktyorlik mahoratini, rejessurada erishgan yangi yutuqlarini keng jamoatchilikka havola etdi⁵⁵.

2014-yilda respublika teatr ijodkorlarining xalqaro tanlov va festivallardagi ishtiroki kengaygan. Masalan, Koreya Respublikasining Seul shahrida o‘tkazilgan ASSITEJ – 2014 Osiyo uchrashuvlari festivalida O‘zbekiston Yoshlar teatri jamoasi o‘zining “Ozornik” (“Shum bola”) spektakli bilan qatnashib, tanlov hay’ati va tomoshabinlarda ijobiy taassurot uyg‘otgan⁵⁶. Bundan tashqari, Turkmaniston Respublikasining Ashxobod shahrida bo‘lib o‘tgan “Teatr san’ati – baxtli zamonda” («Театральное искусство в эпохе счастья») deb nomlangan II Xalqaro teatrlar festivalida Berdaq nomidagi musiqali drama teatri jamoasi “Eng suluv kelinchak” (S. Balg‘abayev asari) bilan ishtirok etgan⁵⁷.

2018-yil 2-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk adabi va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori imzolandi⁵⁸. Nafaqat qirg‘iz elining, balki butun dunyoning buyuk shaxsi bo‘lgan adibning “Jamila”, “Sarviqomat dilbarim”, “Bo‘tako‘z”, “Birinchi muallim”, “Momo yer”, “Somon yo‘li”, “Alvido Gulsari”, “Oq kema”, “Sohil yoqalab chopayotgan olapar”, “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Kassandra tamg‘asi”, “Cho‘qqida qolgan ovchining ohu zori” ko‘plab asarlari dunyoning qator tillariga tarjima qilinib, kitobxonlar e’tirofiga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, bu e’tiborni teatrlar e’tibordan chetda qoldirmadi⁵⁹. Adibning yubiley munosabati bilan O‘zbek Milliy akademik teatri Armaniston Respublikasida o‘tkazilgan III Xalqaro yoshlar forumida adib asari asosida sahnalashtirilgan “Momo Yer qo‘shig‘i” spektakli bilan qatnashdi.

2019-yil 21–22-sentabr kunlari A.S. Griboyedov nomidagi Tbilisi davlat rus akademik teatri ilk bor “Menkim, Nikolay Gumiilyov” monospektaklini yoshlar teatr sahnasida namoyish etdi. Spektakl “Rus she’riyatining kumush asri” loyihasi doirasida “Freelance” va “Niyat” MCHJT hamkorligida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufida tashkil etildi⁶⁰. Hamkorlik aloqalari davomida 2019-yil 26–27-sentabr kunlari O‘zbek Milliy akademik drama teatriga tashrif buyurgan Tataristondan kelgan teatr truppasini ham alohida ta’kidlash lozim. Ushbu teatr “Koda kodachalar” nomli komediyasini qo‘yib berdi⁶¹.

⁵⁵ Abduvohidov F. Viloyat teatrlarida repertuar masalasi (Surxondaryo viloyat teatri misolida) // O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti ilmiy-nazariy, amaliy, uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnali. 2017-yil. – № 2. – 20 b.

⁵⁶ Choriyeva D. “O‘zbekistonda madaniyat sohasi boshqaruv tizimi tarixi (Madaniyat vazirligi faoliyati misolida, 1991–2016 yy.)”. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik diss... – Toshkent, – B. 107.

⁵⁷ Umarov V. Mavsumdan so‘ng. Sarhisob rukni // Teatr. – 2015. – №1. – B. 2-3.

⁵⁸ // Xalq so‘zi. 2018-yil 3-aprel.

⁵⁹ Umarova D. Teatr repertuarini shakllantirishdagi muhim jihatlari // Teatr adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnali. 2019/5. – 47 b.

⁶⁰ Guziya Davlat rus drama teatrining gastroli – Toshkentda // Teatr adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnali. 2019/5. – 37 b.

⁶¹ Teatrlar faoliyatida millatlar hamjihatligi // Teatr adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnali. 2019/5. – 41 b.

Xulosa qilib aytganda, yangi tarixiy sharoitda teatr san'ati zimmasiga yuklangan mustaqillik g'oyasini omma orasida targ'ib qilish, ajdodlar yaratgan ma'naviy merosning, o'ziga xos noyob madaniyatining vorisi ekanligini anglashga yordam berish, ushbu boylikni asrash va umuminsoniy qadriyatlar, jahon taraqqiyoti yutuqlari asosida ko'paytirishga ko'maklashish, yosh avlodni munosib, qat'iy iroda va e'tiqodga ega kishilar qilib tarbiyalash kabi vazifalarni bajarishda Madaniyat vazirligi va teatrlar ijodiy jamoalari samarali mehnat qildilar.

XULOSA

O'zbekistonda tarixiy-madaniy ahamiyatga ega noyob yo'nalish bo'lgan kino va teatr san'atining rivojlanishini o'rganish natijalari va ilmiy tahlillar asosida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. Mustaqillikning dastlabki yillardan bugunga qadar teatr sohasini rivojlantirish maqsadida 20 dan ortiq huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Keyingi yillarda madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan kino, teatr va musiqa sohasi rivoji uchun amalga oshirilishi ko'zda tutilgan qator qaror va farmonlar, huquqiy normativ hujjatlar qabul qilindiki, bu o'z navbatida soha rivoji uchun, uning ravnaqi uchun yangi-yangi imkoniyatlar yo'lini ochib bermoqda. Davlatning qo'llab-quvvatlashi tufayli mamlakatimizda bugungi kunda 40 dan ziyod professional teatr va teatr studiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Turli janrlar – yevropa tipidagi drama, milliy musiqali drama, opera va balet yashab, rivojlanib kelmoqda. Har bir viloyatda qo'g'irchoq teatrlari, Farg'ona, Samarqand va Toshkentda rus drama teatrlari, shuningdek, musiqali teatrlar faoliyat ko'rsatmoqda.

2. Mustaqillikning dastlabki davrida kino va teatrda ijro etiladigan repertuarlarda sovet mafkurasidan holi bo'lish jarayoni va milliy, umuminsoniy qadriyatlarimizni san'atda singdirilishi ustuvorligi yaqqol aks etdi. Shu bilan birga bozor iqtisodiyoti ta'sirida bu davrda kinofilmlarning sifati quyi darajaga tushib ketib, asosan, kassabob filmlarga, teatrlarda esa maishiy-kulgili, folklor-etnografik spektakllar qatorida kino va teatr sohasida millatimizdan yetishib chiqqan buyuk kishilarning film-portretlari, badiiy filmlar, ajdodlarimiz hayotini aks ettiruvchi va milliy o'zlikni anglashga yo'naltirilga spektakllarni sahnalashtirilishiga e'tibor berildi;

3. Kino va teatr soha rivojiga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, yaratilgan shart-sharoitlar, qabul qilingan qaror va farmonlarning amaliyotga izchillik bilan qo'llanilayotganligi, soha rivoji yo'lidagi xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada kengayib borayotganligi o'z navbatida o'zbek kinosining jahonga yuz tutayotganligidan, uning o'ziga xosligi, milliy rang-barangligi bilan asrab-avaylab, saqlab qolinishi uchun barcha imkoniyatlar yetarli bo'lib, bu boradagi ishlar yuqori darajaga ko'tarilgan holda bardavom bo'lishi uchun soha vakillaridan fidoyilik va mas'uliyatni talab qildi.

4. Kino va teatr sohasida faoliyat olib borgan yetuk namoyondalar hayoti va ijodi, beqiyos san'ati va mahorati, betakror ijrosi nafaqat milliy san'atimiz

muhlislarini, balki dunyoning nozikta'b teatrshunos va mutaxassislarini ham hayratda qoldirgan, ulardagi boy meros ustoz-shogird an'anasi orqali iste'dodli davomchilariga yetkazib berildi. Shu bilan birga bu davrda ustoz-shogird an'analari teatrda kino san'atiga nisbatan kuchliroq ekanligi ko'rish mumkin. O'zbek milliy san'atida Turg'un Azizov, Rixsixon Ibroximova, Tolib Karimov, Muhammadali Abduqunduzov, Yoqub Ahmedov, Behzod Muhammadkarimov, Shohida Ismoilova, Qahramon Abdurahimov, Bahodir Yuldashev kabi san'atkorlar havas qilsa arzigelik ijod qilishdi va milliy teatrımız taraqqiyoti davomida qo'lga kiritilgan eng yaxshi ustoz-shogird an'analarini davom ettirdilar.

5. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, zamon talablariga mos, salohiyatli kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu masalaga doir qabul qilingan farmon va qarorlar madaniyat sohasi uchun malakali mutaxassislarini tayyorlashda katta o'rin tutdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga ham salbiy ta'sir qildi. Madaniyat vazirligi boshqaruvidagi madaniyat muassasalari oliy ma'lumotli kadrlar bilan yetarlicha ta'minlanmadи. Ushbu kamchiliklar istiqbolda Madaniyat vazirligi tizimidagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiruvchilar uchun kvotalarning yildan-yilga oshirib borilishi bilan ma'lum darajada bartaraf etildi.

6. Kino sohasida olib borilgan islohotlar hamda xalqaro hamkorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, yurtimizda kino san'atini rivojlanishiga o'zining samarali ta'sirini ko'rsatdi. Kino vakillarini xorij mutaxassislarini bilan o'zaro tajriba almashinuvi natijasida yurtimizda sur'atga olingan kinolar sifati oshdi va jahon darajasiga olib chiqishga harakat qilindi. Bu esa o'z navbatida kino sohasida mamlakatimizda xalqaro loyihalarning amalga oshirilishiga hamda milliy kinolarimizning jahon kinoteatrlaridan o'rin egallahida muhim ahamiyat kasb etdi.

7. Yangi tarixiy sharoitda teatr san'ati sahnaviy talqinlarda milliy o'ziga hoslik, ajdodlar yaratgan ma'naviy merosni, o'ziga xos noyob madaniyatini, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish sezilarli darajada kuchaydi. Shu bilan birga, teatrlarimizdagi o'zgarishlar va xalqaro hamkorlik, dunyoda teatr sohasida ro'y berayotgan tendensiyalarni kuzatish va chet ellarda o'z yutuqlarini tarannum etish imkonidan foydalanish shart-sharoitlari yaratildi.

Tadqiqotning natijalari va xulosalariga asoslanib, O'zbekistonda kino va teatr san'atini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi **taklif** va **tavsiyalarni** berish mumkin:

1. O'zbek spektakl va filmlarini xalqaro festival hamda tanlovlarda namoyish etish, professional kataloglar tuzish, xorijiy prodyuserlar bilan hamkorlikdagi faoliyatni rivojlantirish, kino va teatr ta'limining zamonaviy muammolariga bag'ishlangan xalqaro ekspertlar, amaliyotchi va nazariyotchilarni jalb etgan holda universitetlararo ilmiy-amaliy treninglar, mahorat darslari o'tkazish zarur.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “O‘zbekkino”, “O‘zbekteatr” va Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda jadal rivojlanayotgan kino va teatr san’ati taraqqiyoti va muammolariga bag‘ishlangan forumini o‘tkazish uchun tadqiqot platformasini yaratilishi zarur.

3. Erkin boj olinmaydigan kino zonalarini tashkil etish, soliq imtiyozlari va ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish orqali kino sanoatini yanada izchil rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish lozim.

4. Kino ishlab chiqarish, prokat qilish, xizmat ko‘rsatish sohasida xususiy va kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlari berish yirik kinostudiylar hududida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish zarur.

5. O‘zbekiston kino va teatr san’atining kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji bo‘yicha sotsiologik tadqiqotlar olib borish, respublikada bu soha ta’limining ahvolini o‘rganish zarur. “O‘zbekkino” Milliy ilmiy-tadqiqot instituti negizida mamlakatimiz kino va teatr san’atini kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi monitoring guruhini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

ОЧИЛОВА КАМОЛА ИЛХОМ КИЗИ

**ИСТОРИЯ КИНО И ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА
УЗБЕКИСТАНА (1991-2020 годы)**

07.00.01 – История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ

Карши – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В.2020.1.PhD/Tar 629.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.qarshidu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Эргашева Юлдуз Алимовна
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Кабулов Эшболта Атамуратович
доктор исторических наук, профессор

Сафуллаев Нодирбек Бахтиёрович
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация:

Национальный Университет Узбекистана

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней под номером PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 при Каршинском государственном университете, в 9:00 часов «6» 01 2026 года. (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04; факс: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz) Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирован под номером 308). (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04).

Автореферат диссертации распространен «22» 12 2025 года
(протокол реестра № 29 от «22» 12 2025 года).


Б.Дж. Эшов

Председатель Научного совета
по присуждению учёных
степеней, доктор исторических
наук, профессор


Н.Н. Раджабова

Секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней,
кандидат исторических наук,
доцент


О. Буриев

Заместитель председателя
научного семинара при
Научном совете по
присуждению учёных степеней,
кандидат исторических наук,
доцент



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В эпоху глобализации в мире на сегодняшний день взаимодействие культур и видов искусства, формирование новых подходов к пониманию творческой деятельности, развитие интеллектуального потенциала, процессы культурной универсализации в развитии человечества способствуют реализации важных мер по сохранению феноменальных ценностей человеческой цивилизации. Периодические изменения также наблюдаются в кино и театральном искусстве, которые, как и во всех сферах, просветляют человеческое сознание и мышление, возвышают духовный мир, занимая своё место в жизни стран мира, приобретают новый политический, социальный и духовный облик. Иными словами, остаётся актуальным вопрос адаптации к культурному развитию общества ведущих видов культуры кино и театра, которые защищают человеческое мышление от угроз массовой культуры, воспитывают молодёжь, составляющую около трети населения земного шара, в духе гуманистических идей, создают гениальные произведения искусства, направленные на развитие их творческого, интеллектуального потенциала и эстетического вкуса.

Мировым научным сообществом проводятся научные исследования, направленные на повышение инновационного и интеллектуального потенциала человека как важного вида культуры, повышение его духовного мировоззрения и уровня, изучение кино и театральной сферы, служащих развитию творческого мышления. Всё большее значение приобретают исследование факторов, влияющих на развитие уникальных европейских и азиатских школ сформированных в сфере кино и театра в мире, историю культурной жизни стран Центральной Азии, становление и развитие кино и театра, усиление идеологического давления в культурной жизни республик, входивших в состав советского государства в частности узбекского народа. В то же время в мировой науке такие вопросы, как процессы трансформации в кино и театре, идеологическое влияние, формирование мировоззрения и эстетики у личности, возвышение национальной культуры и духовности, поиск новых средств художественной трактовки, технологии по привлечению зрителей, внедрение методов маркетинга и менеджмента, организация работ агитации и пропаганды рассматриваются как актуальная проблема.

В последние годы на новом этапе развития Узбекистана одним из приоритетных направлений государственной политики рассматривается реформирование сферы культуры, её адаптация к требованиям обновляемого общества. В процессе реформ проводимых для повышения уровня жизни нашего народа проводятся ряд мер по сохранению нашего богатого исторического наследия, ведутся научно-практические исследования национальных ценностей, обычаяев и традиций, нашей культуры, в частности, по развитию и изучению национального кино и театрального искусства, также, передаче будущему поколению и широкой пропаганде среди народов мира. Ведь «культура и искусство играют ни с чем не сравнимую роль в

формировании благородных качеств и мировоззрения человека, сплочении народа и развитии общества, прославлении народа и Родины перед миром»¹. В современном информационном пространстве массовая культура и различные проявления безнравственности могут серьёзно повлиять на мировоззрение нашего народа, особенно молодёжи, в действительности против этой идеологической борьбы особое внимание уделяется развитию национального кино и театрального искусства, воспитанию молодых талантов, реализации их возможностей. В связи с этим анализ и научное исследование развития кино и театрального искусства с исторической точки зрения становится объективной необходимостью как одна из актуальных научных проблем.

